

**IJTIMOYIY TARAQQIYOT TAHLILIGA NISBATAN SIVILIZATSION YONDASHUVNING
EVRIKIMKONIKIYATLARI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10395958>

Hakimov Akmaljon Mirzag'aniyevich

*Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universitetining Qo'qon filiali kata
o'qituvchisi*

Annotatsiya : *Ushbu maqolada jamiyat taraqqiyoti tahliliga nisbatan sivilizatsion yondashuvning evristik imkoniyatlarini tavsiflash uchun ijtimoiy falsafa doirasidagi lokal-tarixiy va passionar modellarni o'ziga xos jixatlari yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *jamiyat, taraqqiyot, tsivilizatsiya, sivilizatsion yondashuv, formatsion yondashuv, ijtimoiy bilish, gnoseologik tahlil.*

Аннотация: *С целью описания эвристических возможностей цивилизационного подхода к анализу развития общества в статье освещаются специфические аспекты локально-исторической и пассионарной моделей в рамках социальной философии.*

Ключевые слова: *общество, развитие, цивилизация, цивилизационный подход, формативный подход, социальное знание, гносеологический анализ.*

Abstract: *In order to describe the heuristic possibilities of the civilizational approach to the analysis of the development of society, the article highlights specific aspects of the local-historical and passionary models within the framework of social philosophy.*

Key words: *society, development, civilization, civilizational approach, formative approach, social knowledge, epistemological analysis.*

KIRISH

Sivilizatsion yondashuv ijtimoiy taraqqiyotni tushuntiruvchi metodologiya sifatida ijtimoiy tizimlarga xos rivojlanish yo'llaring ko'p xilligini tahlil etuvchi intellektal konstruksiyalarning xilma-xilligini aks ettiruvchi fikrlar plyuralizmini nazarda tutadi.

“Sivilizatsiya” kategoriyasining turlicha talqin etilishi bilan bog'liq ravishda va sivilizatsion yondashuvning o'z mohiyatiga ko'ra sivilizatsion modellarni ijtimoiy tizimlarni turli xil pozitsiyalardan tahlil etishdan kelib chiqadigan bir qator mazmunga egaliini farqlash lozim deb o'ylaymiz.

Biroq ta'kidlash lozimki, bunday ajratib ko'rsatish mutlaqo nisbiydir va muallif tomonidan mazkur yondashuvlar haqidagi katta hajmdagi ma'lumotlarni saralash (klassifikatsiya) hamda uning evristik imkoniyatlarini aniqlash uchun taklif etilgan. Shuning uchun taklif etilayotgan modellarning hech biri boshqasidan ustun yoki kam qo'yilmaydi.

“Model” tushunchasi (fransuzcha modele, lat. modulus – me'yor, namuna), bizningcha, qandaydir modellashtirilayotgan narsa protototipining soddalashtirilgan

taxminini anglatadi. Yondashuv – tadqiqotning prinsipial metodologik yo‘nalishi, bu o‘rganilayotgan ob‘ektni qarab chiqish nuqtai nazaridir.

Shu ma‘noda, aytish mumkinki, sivilizatsion yondashuvda birgalikda, yaxlit holda olingan umumlashgan qarashlar aks etgan bo‘lsa, modelda esa, qarab chiqilayotgan ma‘lum belgilar (siyosiy, geografik, diniy va b.) biz tomonimizdan mazkur yondashuvning soddalashtirilgan taxmini sifatida tasavvur etiladi.

Tadqiqot ishida “model” tushunchasidan foydalanish, bizning fikrimizga ko‘ra, sivilizatsion yondashuvning ichida turlicha talqin qilish uchun yordam beradi. sivilizatsion modellar, shuningdek, ijtimoiy o‘zgarishlarning barcha turlari uchun qo‘llanishni namoyon qilishdan iborat.

Sivilizatsion modellar majmuasi olamning bir o‘lchamli manzarasidan uzoqlashish, turlicha mintaqalar, mamlakatlar, xalqlar va irqarga xos bo‘lgan betakrorlikni hisobga olish imkonini beradi. Bu esa sivilizatsion yondashuvning haqiqiy evristik ahamiyati yagona, qat‘iy tarzda qayd etilgan nazariyani yaratish emas, balki zamonaviy gumanitar bilish uchun zarur bo‘lgan g‘oya va tamoyillarni izlash bilan bog‘liqligi orqali izohlanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Sivilizatsion yondashuv va undan qo‘llanishdagi evristik imkoniyatlarini tavsiflash uchun ijtimoiy falsafa doirasidagi *lokal-tarixiy va passionar modellarni* batafsil tahlil qilib chiqishga harakat qilamiz.

Ushbu modellar sivilizatsiyalarni ularning hududiy va tabiiy-iqlim belgilariga ko‘ra tushunish deb qaraladi. Modellardagi tafovut qayd etilgan mezonlardan biriga e‘tiborni qaratishdagina ko‘zga tashlanadi. Shunda lokal-tarixiy modelning markazida alohida, lokal yopiq tuzilmalar va ularning paydo bo‘lishi, taraqqiyoti va so‘nishini tadqiq etish masalasi turadi, passionar modelda tarixiy jarayonlarning insoniyat taraqqiyoti tarixiga ta‘siri va bundan tashqari ushbu masalaning axloqiy aspektlari va uning dunyo hamjamiyatidagi o‘rni o‘rganiladi. Biroq shuni ta‘kidlash kerakki, ushbu modellarning mualliflari ko‘plab muammolarning yechimida ham shunga o‘xshash variantlarni tavsiya qilishadi.

Tadqiqotda *lokal-tarixiy modelni* ajratib ko‘rsatish bilan sivilizatsion yondashuv tarafdorlari orasida tarqalganligi va ilmiy adabiyotlarda bildirilayotgan unikal madaniyatlar va sivilizatsiyalarning ko‘pligi to‘g‘risidagi fikrlarga tayangan holda N.Ya. Danilevskiyning “madaniy-tarixiy tiplar”¹¹, O.Shpenglarning “madaniyat nazariyasi”¹², A.Toynbining “Chaqiriq va Javob nazariyalari”¹³, P.Sorokinning yirik madaniy tizimlar va supertizimlar konsepsiyasi¹⁴, shuningdek, mazkur g‘oyalarning N Elias¹⁵ va Sh.Eyzenshtadt¹⁶ kabi ba‘zi hozirgi zamon olimlarining ishlarida yangilangan ko‘rinishdagi fikrlarida qarab chiqiladi.

¹¹ Данилевский Н.Я. Россия и Европа: Сост., послесловие и комментарии С.А.Вагайчева. -М.: «Книга», 1991.

¹² Шпенглер О. Закат Европы: в 2 т. - Т. 1. Образ и действительность. / Пер. с нем. И.И. Маханькова. - М.: Айрис-Пресс, 2003.

¹³ Тойнби А. Постигание истории: Сборник. / Пер. с англ. Е.Д. Жаркова. 2-е изд. - М.: Айрис-пресс, 2002.

¹⁴ Сорокин П. Социологические истории современности. - М.: Инион, 1992. - 194 с.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Lokal-tarixiy model, bizning fikrimizcha, sivilizatsiyalarni tushuntirish va insoniyat tarixini o'rganish uchun asos bo'la oladigan model hisoblanadi.

Sivilizatsion tadqiqotlarining lokal-tarixiy modeliga xos bo'lgan asosiy jihatlarni sanab o'tamiz:

Birinchidan, bu bir-biri bilan bog'liq bo'lgan mustaqil sivilizatsiyalar, madaniy-tarixiy tiplarning har birini o'z mavjudligining butun davri mobaynida bir qator bosqichlarni (vujudga kelish, shakllanish, rivojlanish, eskirib borish, so'nib borish yoki yo'q bo'lish) bosib o'tadigan asosi sifatida ajratib ko'rsatishdir. Bunda muhimi, bizningcha, mazkur bosqichlarning nafaqat insoniyat taraqqiyoti uchun, balki butun tabiat uchun ham an'anaviyligidir, bu esa tabiat va jamiyat to'g'risidagi fanlarning birga rivojlanishi haqidagi g'oya to'g'risida gapirish imkonini beradi.

Ikkinchidan, tadqiqotchilar nafaqat sivilizatsiyalarning bir birlaridan farq qilishlarini, balki ularning paydo bo'lishi, gullab-yashnashi va tugab ketishi sabablarini ham tushuntirib o'tishadi, bu esa o'tmishni tahlil qilish bilan birga kelajak istiqbolni bashorat qilish imkonini ham beradi. Masalan, N.Ya.Danilevskiy ushbu jarayonlarni boshqaruvchi asosiy tamoyillarni tarixning ijodkorlariga xos bo'lgan "ijobiy" va "salbiy" umumiy qonuniyatlarni ajratib ko'rsatish orqali ifodalaydi va bir qator qonunlarni sxematik tarzda bayon qilib beradi. Bu qonunlarni sxematik ko'rinishda quyidagicha bayon qilish mumkin: birinchi qonunga muvofiq "alohida til yoki tillar guruhi bilan tavsiflanadigan biron qabila yoki xalqlarning etnik birligi madaniy-tarixiy tipning o'ziga xos ko'rinishini tashkil etadi". Demak, sivilizatsiyaning paydo bo'lishi uchun makoniy yaqinlik bilan birga ma'naviy-ruhiy yaqinlik ham zaruriy shart hisoblanadi. Ikkinchi qonun xalqning taraqqiy etishga qodirligini tushuntiradi: "Xalqning potensial sivilizatsiyasi yaratilishi va rivojlanishi uchun xalq siyosiy mustaqillikka ega bo'lishi lozim"¹⁷. Uchinchi qonunga ko'ra, "biron bir madaniy-tarixiy tip sivilizatsiyasining boshlanishi boshqa tipdagi xalqlarga uzatib berilmaydi". Ushbu qonunni ifodalar ekan, N.Ya.Danilevskiy bir madaniyatdan boshqasiga o'tishning istagan ko'rinishlari majburiy tarzda inqirozni keltirish chiqarishini e'tirof etgan holda har qanday madaniy-tarixiy tiplarning o'zaro bir biriga o'tishi mumkinligini inkor etadi. Bundan tashqari N.Ya.Danilevskiy, to'rtinchi qonunni ifodalar ekan, "haqiqiy yuksak madaniyatni amalga oshirish uchun turfa xildagi etnografik material zarur bo'lishini" ta'kidlaydi"¹⁸. Beshinchi qonunda, bizningcha, juda muhim fikr qayd etilgan va u mazkur konsepsiyaning asosiy mazmunini aks ettiradi: "Madaniy-tarixiy tiplar taraqqiyotining borishi uch bosqichdan iborat bo'lgan ko'pyillik o'simliklarning hayotini eslatadi: uzoq davr mobaynida o'sishi, madaniy va siyosiy o'z-o'zini anglash davri, keyin esa gullash va hosil berish davri. Gullab-

¹⁵Элиас Н. О процессе цивилизации. Социогенетические и психогенетические исследования. - М.: Университетская книга, 2001

¹⁶Эйзенштадт Ш. Революция и преобразование обществ: сравнительное изучение цивилизаций. - М.: Аспект Пресс, 1999.

¹⁷Данилевский Н.Я. Указ. соч. - С.115.

¹⁸Данилевский Н.Я. Указ. соч. - С. 116.

yashnash davriga erishgach, sivilizatsiya o'z kuchlarini sarflab bo'ladi va toshdek qota boshlaydi"¹⁹.

Uchinchidan, sivilizatsiyani alohida ajratib olingan tuzilma sifatida ko'rib chiqish uning tarkibidagi elementlarni tahlil qilish emas, balki ijtimoiy borliqning barcha sohalarini aks ettiruvchi, ba'zi aspektlari alohida ajratib

ko'rsatilgan qandaydir yangi umumiy tuzilmani yaratishdan iboratdir. Shunga muvofiq ravishda qaysi sohalarining ustivorligidan sivilizatsiya taraqqiyotining unikalligi, uning butun insoniyat madaniyati xazinasiga qo'shgan hissasi ayon bo'ladi.

N.Ya Danilevskiy to'rtta soha yoki faoliyat tiplarini ajratib ko'rsatadi, bular: diniy, madaniy (fan, sanoat, san'at), siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy sohalar. Va muallifning ta'kidlashicha, mabodo ushbu to'rt element birlashtirilsa, aynan ana shu sintez "tarixiy maydonning barcha yo'nalishlari"²⁰ bo'ylab harakatlanish mumkinligi tufayli tarixning bashorat qilingan maqsadiga erishish imkoni paydo bo'ladi.

To'rtinchidan, "faqat bitta tip ichida qadimgi, o'rta va yangi tarix terminlari bilan ataluvchi tarixiy harakatlanish davrlariga ajratish mumkin"ligi tufayli lokal-tarixiy model doirasida butun Yevropa tarixini "qadimgi", "o'rta" va "yangi" davrlarga bo'lish juda qiyin hisoblanadi¹⁰².

Bizning fikrimizga ko'ra, bunday deyish insoniyat jamiyati taraqqiyotining ko'pvariantlilik nuqtai nazaridan to'g'ri hisoblanadi. Ayrim mintaqalar, mamlakatlar, etnik birliklar taraqqiyotining o'xshash emasligi va sodir bo'lish zamonidagi tafovutlari bunday bo'linishdan qo'llanishning imkoni yo'qligini ko'rsatadi. Hozirgi davrda urug'-qabilachilik davrini boshdan kechirayotgan an'anaviy va ibtidoiy jamiyatlarning mavjudli ham butunjahon tarixiga tadbiquan bunday bo'linishdan foydalanib bo'lmasligini tasdiqlaydi.

Beshinchidan, lokal-tarixiy model jamiyat taraqqiyotiga xos bir chiziqli emas, balki murakkab taraqqiyot namunasini ko'rish imkonini beradi. Bu esa universal Yevropa tarixi konsepsiyasida uchramaydigan Rossiya jamiyati, Sharq mamlakatlari tarixini ob'ektiv tushuntirish uchun imkon beradi.

I.N.Ionov esa hozirgi paytda lokal sivilizatsiyalarni tadqiq etish: "Nazariy sotsiologiya va tarix sohasidan tobora tashqariga chiqib amaliy politologiya tomon ko'chib o'tmoqda" va siyosiy dolzarblik tusini olmoqda²¹, deya ta'kidlaydi.

Umuman olganda lokal-tarixiy modelda real holda mavjud bo'ladigan, ularning unikal va betakror tarzda namoyon bo'ladigan madaniy-tarixiy tiplari va tuzumlarini o'rganish nisbatan ahamiyatliroq bo'lib ko'zga tashlanadi.

Lokal -tarixiy modelning kamchiligi sifatida insoniyat taraqqiyoti davrlarini bir birini almashtirgan chog'ida o'zida qandaydir qattiq boshqarilishni qamrab olgan qat'iy biologiklashtirishda ko'rish mumkin. Butunjahon tarixiy jarayon g'oyasini inkor etadigan

¹⁹ Там же. - С. 116.

²⁰ Данилевский Н.Я. Указ. соч. - С.117.

²¹ Ионов И.Н. Теория цивилизаций на рубеже XXI века. // Общественные науки и современность. - 1992. - № 2. - С.23.

sivilizatsiyalarning o'zaro izolyatsiya etilganligini oshirib yuborish ham, nazarimizda, ushbu modelning qaltisligiga mansub.

Passionar modelda sivilizatsiya taraqqiyotining boshqa aspektlarini ko'rib chiqamiz. Ta'kidlash lozimki, uning asosida V.I.Vernadskiyning biosfera haqidagi fundamental ta'limotining tahlili turadi. Bu, bizning fikrimizga ko'ra, zamonaviy sivilizatsiyalarda sodir bo'layotgan o'zgarishlar bilan birga zamonning mazkur muddatidan iborat davr uchun barcha tipdagi jamiyatlar uchun dolzarb hisoblangan globallashuv muammolarining sabablarini ham juda ishonarli tarzda va dalillar asosida tushuntirib beradi.

Boshqa tomondan mazkur model doirasida asosiy urg'u tabiatning ma'lum arealida istiqomat qiladigan xalqlarning paydo bo'lishi, rivojlanishi va yo'q bo'lib ketishini nazarda tutadigan sayyoramizning etnik tarixi konsepsiyasi muallifi L.N.Gumilevning g'oyasi²² ga qaratiladi.

Ushbu nazariyaning asosini L.N.Gumilev tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan "passionarlik" (faollikka intilish) va "xushomadgo'ylik" (komplimentarnost) tushunchalari tashkil etadi.

"Passionarlik" termini birinchi marta L.N.Gumilevning "Priroda" jurnalining 1978 yilgi 12-sonida bosib chiqarilgan "Biosfera va ong impulsarlari" nomli maqolasida mustaqil ruhiy-psixologik belgi sifatida ta'riflangan. Unda ta'kidlanadiki, passionarlik "ma'lum bir maqsadni amalga oshirish uchun yo'naltirilgan xarakterga tegishli ustivor holat (dominanta) dir. Mazkur maqsadga erishish ushbu shaxs uchun o'z hayotidan ham qimmatliroqdir"²³. Shu bilan birga passionarlik insonni faol, qizg'in harakatlanish qobiliyati sifatida qarab chiqilar ekan, bunda o'ta passionar shaxslar istalgan harbiy harakatlar, inqiloblar, ko'chib yurishlarning harakatlantiruvchi kuchlari (L.N. Gumilev ta'rifiga ko'ra passionarlar) sifatida o'tmishning asosiy voqea-hodisalarini o'rganishga yo'l ochib bera oladigan kalit mazmunida talqin qilinadi.

Passionar modelning asosiy g'oyasini quyidagicha ifodalash mumkin: kosmik nurlar yer yuzasining ma'lum qismidagi biosfera bilan ta'sirga kirisha boshlab, etnosning paydo bo'lishi uchun turtki-chaqnash beradi. Passionar turtki – bu u yoki bu mintaqada etnik tizimlarning paydo bo'lishiga olib keladigan mikromutatsiyadir. Yagona yaxlit uyg'unlikning qaror topishi: kosmos – Yerning ma'lum hududi – ushbu hududda istiqomat qiladigan etnos. Rivojlanishning ana shu fazalarini bosib o'tgach (insonning hayotiy davrlariga o'xshash holda) etnos o'ladi. Etnos umrining davomiyligi L.N.Gumilev tomonidan 1200-1500 yilni tashkil etishi ta'kidlanadi, qaysiki, ushbu fikr umuman olganda etnografik va demografik ma'lumotlar bilan tasdiqlanadi.

V.I.Vernadskiy tomonidan ilgari surilgan va L.N. Gumilev tomonidan rivojlantirilgan hayot va tabiatning birligi prinsipi inson va sotsium (hayot kabi umumiylikda) tabiat – biosferadan ajralmasdir va inson uning tarkibiga kiradi, uning funksiyasi hisoblanadi. Ushbu

²² Гумилев Л.Н. Этногенез и биосфера Земли. / Сост. и общ. Ред. А.И. Куркчи. - М.: «Институт ДИ-ДИК», 1997.

²³ Гумилев Л.Н. Конец и вновь начало. - М.: Танаис, 1994. - С. 42.

yaxlitlik tamoyilini buzish hayotning o'zini barham topishiga olib kelishi mumkin edi va xuddi shu sababli sayyoramizning o'zi murakkab hamjamiyatlarni, ekologik tizimlarni yaratadi. Buning uchun esa jamiyat tomonidan biosferani o'zgartirishlarning salbiy oqibatlarining oldini olish uchun "texnik jarayonni boshqa iznga yo'naltirish, insoniyatning geoximik ishini yerning yadrosidagi ximiyaga bog'liq holda o'zgartirish zarur".

Sivilizatsiyalarning rivojlanish tarixi tashqi muhit va uning energiyasi bilan to'g'ri va teskari bog'liqligiga muvofiq ravishda qarab chiqiladi. Har bir etnosning (yoki umuman sivilizatsiyaning) taqdiri biosfera bilan o'zaro bog'liqligidadir. Etnos o'z ichida ijtimoiy tarix hodisalari sodir bo'ladigan tabiiy fenomen sifatida olib qaraladi.

Shuni ham ta'kidlash lozimki, L .N. Gumilev asarlarida ilgari surilgan passionar model mutaxassislar tomonidan ko'p hollarda tanqidga ham uchrab turadi. Masalan, ulardan ba'zilarini keltirib o'tamiz.

I.M.Saveleva va A.V.Poletaevlar o'zlarining "O'tmish va zamon. Boy berilganlarni izlab" nomli asarida L.N.Gumilev nazariyasiga quyidagicha baho berishadi:"Tarixiy taraqqiyotning ba'zi fazalarini original nomlanishi va "sivilizatsiya" yoki "madaniyat" tushunchalari o'rniga "etnos" kategoriyasidan foydalanganligini hisobga olmaganda L.N. Gumilevning konsepsiyasi "hayot sikllari"(yoshlik – o'smirlik – qarilik – so'lib qolish) haqidagi an'anaviy sxemaning o'zginasidir. L.N. Gumilevning asosiy farqi undagi biokosmik determinatsiyasida: etnoslar hayotiy sikli boshlanishining sababi kosmik nurlanish bilan bog'liq bo'lgan "passionar turtki"da ekanligini ta'kidlashidir"²⁴.

Passionar model haqidagi tanqidiy fikrlarning ayrimlariga qo'shilgan holda biz ham ta'kidlamoqchimizki, ularning barchasini ham haq deb hisoblash mumkin bo'lmagani, ayrimlari esa munozarali ekanligini e'tirof etgan holda bu qarashlar passionar model to'g'risidagi konsepsiyaning umumiy qiymatiga jiddiy ta'sir eta olmaydi.

Shunday qilib, tasavvur qilamizki, yuqorida tahlil etib chiqilgan sivilizatsion modellar orqali izohlangan sivilizatsion yondashuv zamonaviy sivilizatsiya va ijtimoiy taraqqiyotni baholashda ishonchli tavsif hisoblanadi hamda uning istiqboldagi taraqqiyoti muammolarini qarab chiqish imkonini beradi

XULOSA

Ijtimoiy taraqqiyotni o'rganishda sivilizatsion yondashuv metodologiyasini qo'llashning evristik imkoniyatlari tahliliga yakun yasalar ekanmiz, quyidagi xulosalarga kelish mumkinligini alohida ta'kidlashimiz lozim:

1. Sivilizatsion yondashuv ijtimoiy taraqqiyot metodologiyasi sifatida xilma xil intellektual konstruksiyalarning keng qamrovli majmuasidan iboratdir. "Sivilizatsiya" ketegoriyasini turlicha talqin qilish va sivilizatsion yondashuvning o'z mohiyati oqibati o'laroq unda sivilizatsion model mazmunidagi ayrim farqli jihatlarni ajratib ko'rsatish imkonini beradi.

²⁴Савельева И.М. Полетаев А.В. История и время. В поисках утраченного. - М.: «Языки русской культуры», 1997 г. - 800 с. - С. 349.

2. Sivilizatsion yondashuv tarkibida mavjud bo'lgan lokal-tarixiy, passionar va rus modellarni ko'rib chiqdik. sivilizatsiyaning mustaqil, yopiq va hodisaning umumiy tarixiy jarayon bilan bog'liq bo'lmagan *lokal-tarixiy modeli* u bilan birgalikda mavjud bo'ladigan turlicha madaniy-tarixiy tiplarning real xilma-xilligini keng qamrovli va har tomonlama o'rganishning evristik imkoniyatlarini ta'minlaydi. Passionar model ijtimoiy tizimlar taraqqiyoti tahlilini Yer sayyorasining o'z energiyasi va unda hukm suradigan tabiiy-iqlim sharoitlari bilan bevosita bog'liqlikda o'rganishni nazarda tutadi.

3. Sivilizatsion modellar tahlili asosida biz ko'rsatib berishga harakat qilgan sivilizatsion yondashuv bizga zamonaviy sivilizatsiya va uning istiqboldagi taraqqiyoti muammolarini o'rganishda ijtimoiy taraqqiyotni baholashda ishonchli dalil bo'lib xizmat qiladi. Bunga dissertatsiya ishining ikkinchi bobi bag'ishlangan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES):

1. Данилевский Н.Я. Россия и Европа: Сост., послесловие и комментарии С.А.Вагайчева. -М.: «Книга», 1991.
2. Шпенглер О. Закат Европы: в 2 т. - Т. 1. Образ и действительность. / Пер. с нем. И.И. Маханькова. - М.: Айрис-Пресс, 2003.
3. Тойнби А. Постигание истории: Сборник. / Пер. с англ. Е.Д. Жаркова. 2-е изд. - М.: Айрис-пресс, 2002.
4. Сорокин П. Социологические истории современности. - М.: Инион, 1992. - 194 с.
5. Элиас Н. О процессе цивилизации. Социогенетические и психогенетические исследования. - М.: Университетская книга, 2001
- 6.Эйзенштадт Ш. Революция и преобразование обществ: сравнительное изучение цивилизаций. - М.: Аспект Пресс, 1999.
- 7.8.9.10.Данилевский Н.Я. Указ. соч. - С.115-116-116-117
11. Ионов И.Н. Теория цивилизаций на рубеже XXI века. // Общественные науки и современность. - 1992. - № 2. - С.23.
12. Гумилев Л.Н. Этногенез и биосфера Земли. / Сост. и общ. Ред. А.И. Куркчи. - М.: «Институт ДИ-ДИК», 1997.
13. Гумилев Л.Н. Конец и вновь начало. - М.: Танаис, 1994. - С. 42.
- 14.Савельева И.М. Полетаев А.В. История и время. В поисках утраченного. - М.: «Языки русской культуры», 1997 г. - 800 с. - С. 349.
- 15.Рафиқова Д., Азимов У. ТАЪЛИМНИ МОДЕРНИЗАЦИЯЛАШ ВА ТАЪЛИМ СИФАТИНИ ОШИРИШ //Экономика и социум. – 2021. – №. 2-2 (81). – С. 167-169.
- 16.Рафиқова Д., Азимов У. MODERNIZATION OF EDUCATION AND INCREASING THE QUALITY OF EDUCATION //Экономика и социум. – 2021. – №. 2-2. – С. 167-169.
17. Azimov U. A. TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDA AKSIOLOGIYA //GOLDEN BRAIN. – 2023. – Т. 1. – №. 13. – С. 201-204.

18. Azimov U. YOSHLARNING DEMOKRATIK ISLOHOTLARGA AKSIOLOGIK MUNOSABATINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI TAHLILI //Scientific journal of the Fergana State University. – 2023. – №. 1. – С. 195-195.
19. Rafikova D. et al. Preparing to innovative activity: Problem solving //AIP Conference Proceedings. – AIP Publishing, 2023. – Т. 2789. – №. 1.
20. Yuldasheva N. Jismoniy tarbiya o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik-psixologik jihatlari //Scientific-theoretical journal of International education research. – 2023. – Т. 1. – №. 4. – С. 59-64.
21. Уринов Р. Ё. Специфика англоязычной технической документации в сфере информационных технологий //Science and innovation. International scientific. – Т. 1. – №. 7.
22. Urinov R. Y. IMPROVING PROFESSIONAL COMPETENCES OF ENGLISH LANGUAGE TEACHERS //GOLDEN BRAIN. – 2023. – Т. 1. – №. 13. – С. 392-396.
23. Nimadovna K. S. ETHNOSPORT AS A METHODOLOGICAL BASIS OF SOCIO-CULTURAL SYSTEMS DEVELOPMENT //JOURNAL OF CHILD PSYCHOLOGY AND PSYCHIATRY. – 2023. – Т. 6. – №. 4. – С. 1-6.
24. Nimadovna K. S. SHAXS INSONIY MUNOSABATLAR TIZIMIDA //IMRAS. – 2023. – Т. 6. – №. 6. – С. 110-117.